

“BERDAQNING OLAMNI BILISH HAQIDAGI NAZARIYALARI”.

Toshkent Pediatriya Tibbiyot Instituti.

2-pediatriya va Fundamental Tibbiyot fakulteti

1 – kurs 104 – guruh talabasi

Sobirova Nasibaxon Jamoliddin qizi.

Annotatsiya: Mazkur maqolamizda Berdaq ijodida olamni bilish, inson tafakkurining shakllanishi va voqealarni anglash masalalari yoritilgan. Berdaq asarlarida aks etgan falsafiy qarashlari orqali olamni bilishga oid nazariy yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, shoirning ilm, aql, tafakkur va ong borasidagi qarashlari va ularning zamonaviy falsafiy konsepsiyalar bilan uyg'unligi ko'rib chiqiladi. Maqola davomida Berdaqning asarlarida ilgari surilgan g'oyalar uning davridagi jamiyat muammolarini hal etishga qanday xizmat qilganligi haqida fikr yuritiladi. Ushbu tadqiqot Berdaq merosini yangi nuqtai nazardan baholashga, uni keng kitobxonlarga yetkazishga va ilmiy – falsafiy ahamiyatini ochib berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: sarira qamchisi, so'fiy, tamagir, qoloq, faylasuf, metafizik, ma'naviy yuksaklik, mushohada.

Berdag (asl ismi Berdimurod Qarg'aboy o'g'li) 1827 – yilda Qoraqalpog'iston Respublikasida dunyoga kelgan. Avval ovul maktabida, keyin esa “Qoraqum eshon” madrasasida taxsil oladi. Berdaq ham ko'pgina Sharq mutafakkirlari kabi moddiy olamni, ruhni ko'rinish sifatida talqin qiladi. Berdaqning fikricha, turli – tuman bir butundir. Berdaq tabiarga inson ko'zi bilan qaraydi. U insonni tabiatning oliy mahsuli hisoblab, uni ilohiylashtiradi. U buyuk shoir izidan borib inson qadr – qiymatini ulug'laydi. Tabiat boyliklari insonga xizmat qilishi kerak, - degan g'oyani ilgari suradi.

Ilohiy kuchni e'tirof etgan Berdaq albatta, ateist bo'la olmas edi, ammo u din aqidalariga tanqidiy ko'z bilan yondoshadi. U insonning narigi dunyo

oldidagi qo'rqinchlardan ozod bo'lishini xohlaydi. U insonning haqiqiy baxt – saodati shu haqiqiy dunyoda ekanligini ta'kidlaydi. Shuning uchun Berdaq narigi dunyoda baxt – saodat va'da qilgan din peshvolarini qattiq tanqid qiladi.

Xalqni har tomonlama talagan, baxtsiz qilgan, ham moddiy, ham ma'naviy jihatdan qashshoqlashtirgan mutafakkir shoir sarira qamchisi bilan ayamadan savalaydi, ularni qabihliklarini, razilliklarini ochib tashlaydi. Ularning hayotidagi haqiqiy basharasini: ma'naviy tubanligini, axloqiy buzuqligini dadil fosh etadi. Garchi Berdaq xalqni tamagir so'fiylarni fosh qilib, ularni tanqid qilgan bo'lsada, o'zining din ta'sirida bo'lganligini inkor eta olmaydi.

Darhaqiqat, Berdaq yashab ijod etgan davrda adolatsizlik, jaholat avj olgan edi. O'zboshimcha beklar, eshonlar va boshqalar o'zlarining shaxsiy manfaatlari yo'lida mehnatkash xalqni shafqatsiz ezar edi. O'z taqdirini jafokash taqdiri bilan uzviy bog'langan Berdaq shu davrdagi tuzumga befarq qarab tura olmadi. U o'z asarlarida o'sha davrdagi tuzumni ayamadan tanqid qildi. Zolim beklar, insofsiz boylar, bosqinchi boylarga nisbatan o'zining g'azab tuyg'ularini ifoda etgan. Buning isbotini "Bu zamonda" nomli she'rining quyidagi satrlari orqali ham bilib olishimiz mumkin.

Zolimlar ezib el - yurtlarni sonsiz,
Yuzida qoni yo'q - insof - iymonsiz.
Mo'min qo'llar turar termulib nonsiz,
Dushmanlar jabri o'tdi - ku zamonda.

Dushmanlar yo'lda chog' qazib yotarlar,
Yazidning yo'lini maxkam tutarlar.
O'zi tegmaganga kesak otarlar,
Omon yurish kerak ushbu zamonda.

Berdag arzimagan narsalar uchun odamlar bir – biridan o'ch olish, o'ldirish, jarohatlarni nodonlik, ko'rlik belgisi deb hisoblaydi va bu illatlarni xalq ommasining manfaatlariga zid deb biladi. Berdaq ijtimoiy – siyosiy qarashlarning yana bir asosiy tomoni xotin – qizlarning jamiyatdagi tutgan o'rni masalasida ham

ochiq – oydin ko'rindi.

Ma'lumki, xotin – qizlarning rahimsiz ezilish va kamsitilishiga o'tmishning qoloq, chirkin urf – odatlari, yaramas qonun qoidalari sabab bo'lgan edi. Xotin qizlarning kamsitilayotganligini, ularning haq – huquqlari oyoq osti qilinayotganligini o'z ko'zi bilan ko'rgan, yurak – yuragidan his qilgan Berdaq bunday razolatga befarq qarab tura olmadi, munis va muhtaram ayollarni himoya qildi. Berdaq xotin – qizlarni oiladagi, turmushdagi, umuman jamiyatdagi o'rni xususida o'z zamonasi uchun juda ilg'or fikrlarni ilgari surdi. U xotin – qizlarni erkaklarning hamfikri, ularning kuchiga – kuch, quvvatiga quvvat qo'shadigan, hayotiga bezak beradigan jonkuyar hamroh deb bildi. U ayniqsa, ayollardagi odob – u ikromni, soddalik va muloyimlikni, kamtarlik va oliyjanoblikni ulug'laydi.

Berdag ijtimoiy – siyosiy qarashlarida axloqiy masalalar ham katta o'rin tutadi. Uning pand – nasihatli she'rlari, zolimlikni, adolatsizlikni, takabburlik va maqtanchoqlikni, nomardlik va ikkiyuzlamachilikni qattiq qoralagan, yuksak insoniy axloqni ulug'lagan. Shu sababli iste'dodli shoirning ijtimoiy mazmundagi asarlari uzoq zamonlardan beri O'rta Osiyo xalqlari shoir va baxshilarning dilidan chuqur joy olgan, ular jo'shqin ilhom berib kelgan. Berdaq bu yorug' olamdagi jamiki narsalar va ezgulik tamoyillari faqat inson uchun, shuningdek uning yorqin kelajagi uchun xizmat qilishi kerak deb hisoblaydi. Tabiatdagi va jamiyatdagi moddiy, ma'naviy hamda ma'rifiy boyliklar insonning bu hayotda yaxshi va mukammal yashashi uchun yoritilgan deb ta'kidlaydi. Bunday qarashlar qadimgi Yunoniston, Rim, Hind, Xitoy hamda o'rta asr va zamonaviy dunyo faylasuflaridan ham ko'p uchragan.

Olam yaratilgandan buyun uning noz – u ne'matlaridan bahra olib yashaydi. Berdaq uchun narigi dunyo huzur – halovati va lazzatlaridan ko'ra bu dunyoni, ya'ni haqiqiy dunyoni ustun qo'yadi. Chunki u narigi dunyoning lazzatlanganligi haqidagi kafolatga unchalik ishonmaydi. Uning uchun xon ham, bek ham, amaldor ham, eshon ham, qashshoq xalq ham, hunarmand ham, darvesh ham inson sifatida teng bo'lishi kerak deb hisoblaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Berdaq bu bilan uning falsafasi oddiy inson ekanligini, uning falsafiy qarashlarini shakllanishiga ham insoniyat ta'sir qilganligini ko'rsatib o'tdi. Ammo barcha odamlar bir xil bo'lavermaydi, ularning ham ichida yuqorida nomlari keltirilgan insonlar ham bo'ladi. Bu shu davr uchun achinarli hol albatta, tan olishimiz zarur. Shoir bu vaziyatda falsafiy yondashdi va o'z falsafasini ochib berdi. Biz bundan bilamizki Berdaqning falsafiy qarashlarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan omillardan bittasi, uning shu davrda tug'ilgani, shu davrda yashagani, shu xalq orasida bo'lgani, bularni o'z ko'zi bilan ko'rib, boshidan o'tkazgani sabab bo'lgan deb hech ikkilanmay ayta olamiz.

Berdagning fikricha, inson olamni anglash uchun avvalo o'zini bilishi zarur. U hayotni sinchiklab kuzatish orqali koinot sir – asrorlariga yaqinlashish mumkinligini ta'kidlagan. Shuningdek, shoirning qarashlarida inson tafakkurining cheksizligi va uning imkoniyatlarini doimiy o'rganish lozimligi ham aks etadi. Shoir o'z ijodida tabiat va inson o'rtasidagi uyg'unlikni yuksak baholaydi. Berdaqning falsafiy mushohadalari tabiat hodisalarining ichki mohiyatini bilish orqali hayot mazmunini anglashni o'ziga xos usulda tushuntiradi. Unga ko'ra, tabiat va odam bir – birini to'ldiruvchi ikki tushuncha bo'lib ular o'rtasidagi munosabatni tushunish olamni bilishning asosi sanaladi.

Berdag olamni bilishda bilim va tafakkurning o'rnini alohida ta'kidlaydi. Uningcha, insonning bilimi va donoligi qanchalik keng bo'lsa, u koinot sirlariga shunchalik chuqur kirib borishi mumkin. Berdaqning nazariyasid bilim nafaqat insonni, balki butun jamiyatni kamolotga yetaklovchi kuch sifatida ta'riflanadi. Uning nazariyalarida koinot cheksizligi va inson imkoniyatlari bilan uyg'unlashtirilgan falsafiy tushunchalari asosiy o'rinni egallaydi. Shoir ijodidagi ko'plab misralar insonning o'z imkoniyatlarini ishga solish, maqsadida erishish uchun mehnat va sabr muhimligini ko'rsatadi.

Shoirimizning asarlarida metafizik savollarni topish mumkin. U ko'p hollarda “Koinot qanday yaratilgan?” yoki “Insonning hayotdagi roli nima?” kabi masalalarni yoritishga intilgan. Bu savollarning badiiy talqini Berdaq ijodida uning o'ziga xos falsafasini shakillantiradi. Berdaq o'z asarlarida inson hayoti va

olam haqidagi nazariyalarni doimiy ravishda kuzatib, ularga javob topishga harakat qilgan. Uning she'rlarida jamiyat va shaxs orasidagi o'zaro bog'liqlik, ma'naviy yuksaklikning ahamiyati kabi mavzular o'z aksini topgan. Shoir nazarida, inson olamni anglash yo'lida doimiy izlanishi lozim. Har bir kishi o'z fikr – mulohazalari orqali yangi haqiqatlarni kashf etadi. Berdaqning ijodida bu g'oyalar mutlaqo yangi talqinda o'z aksini topadi.

Olam va odam mohiyatini tushunish Berdaqning ijodida markaziy o'rinda turadi. U insonni tabiatning ajralmas qismi deb biladi va har bir odam hayot mazmunini izlashda o'ziga xos yo'lni topishini aytadi. Umuman olganda, Berdaqning olamini bilish haqidagi nazariyalari o'z davri uchun chuqur falsafiy mushohadalardan iborat bo'lib, ular bugungi kun o'quvchilari uchun ham qimmatli manba hisoblanadi. Uning asarlari inson tafakkurining cheksiz imkoniyatlari va koinot sirlarini bilishga intilishini ulug'laydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. E. Yusupov. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. — T.: «Universitet», 2000.
2. A. Xayitmetov. Adabiy merosimiz ufqlari. — T.: «O'qituvchi», 2004.
3. A. Sher. Diniy badiiy asaming estetik mohiyati. - T.: Guliston jurnali, 2001.
4. G'ulomova M.X., Sobirova N.K. Yangi innovatsion texnologiya yordamida ta'lim samaradorligini oshirish usullari – T.: 2009.
5. B. Gurbanboyev Berdaq va o'zbek adabiyoti, T., 2001.